



MODERN CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF CITIES IN THE WORLD

Khasanboy S. Qosimov

PhD Student

National University of Uzbekistan

xasanboy.qosimov81@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: cities, urbanization, clustering, urban functions, millionaire cities, global cities, ghost towns.

Received:

Accepted:

Published:

Abstract: This article partially highlights the modern features of the development of cities in the world, as well as provides information on the factors influencing the development of cities and their historical formation. The features of urban development in different regions of the world were also discussed.

DUNYODA SHAHARLAR RIVOJLANISHINI ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Xasanboy S. Qosimov

Tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

xasanboy.qosimov81@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: shaharlar, urbanizatsiya, guruhlashtirish, shahar funkiiyalari, millioner shaharlar, global shaharlar, arvoh shaharlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon shaharlari rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari qisman yoritilgan bo'lib, Shaharlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning tarixan shakllanishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek dunyoning turli mintaqalaridagi shaharlarni rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan.

СОВРЕМЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ ГОРОДОВ МИРА

Хасанбой С. Касимов

Аспирант

Национальный университет Узбекистана

khasanboy.qosimov81@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: города, урбанизация, кластеризация, городские функции, города-миллионеры, глобальные города, города-призраки.

Аннотация: В данной статье частично освещены современные особенности развития городов мира, а также представлена информация о факторах, влияющих на развитие городов и их историческое становление. Также обсуждались особенности развития городов в разных регионах мира.

KIRISH

Shaharlar eng qadimgi davrlardan vujudga kelgan bo'lib, qishloqlar bilan birgalikda aholi manzilgohlarining ikki asosiy tipidan biridir. Shaharlar tarixan ijtimoiy va geografik mehnat taqsimoti natijasida paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq, siyosiy boshqaruv, mudofaa ishlari, diniy markaz va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. [1]

Shaharlarni rivojlanishining tarixan shakllanishini 19-asrgacha juda sust kechganini ko'rishimiz mumkin. 1800 yilda dunyo aholisining 3 % shaharlarda yashagan. 18-asrda sanoatning shakllanishi va rivojlanib borishi bilan birga shaharlar ham tez sur'atlarda rivojlanib bordi. Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida esa urbanizatsiya jarayonlari XX asrning o'rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi ijobiy o'zgarishlar tufayli boshlandi va hozirgi kungacha yuqori sur'atlar bilan davom etmoqda.

ASOSIY QISM

Keyingi 2 asr davomida dunyo aholisi umumiy sonidan shahar aholisining ulushi muntazam ravishda o'sib borgan. 1800-yilda aholining taxminan 3 % i shahar joylarida istiqomat qilgan bo'lsa. 1900-yilga kelib bu raqam 14 % ga, 20-asrning 50-yillarida jahon urbanizatsiya darajasi 29 % ni tashkil etdi, 1990-yilda bu ko'rsatkich 45 %, 2001-yilda – 47 % ga yetadi. 2010-yilga kelib shaharliklarning dunyo aholisidagi ulushi 50 % dan ortdi va hozirgi kunda u 55 % dan ortiqni tashkil qilmoqda. [3]

Shaharlarni rivojlanishi 3 ta asosiy bosqichdan o'tib rivojlanadi. [5-493]

1. Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi 50 % dan past bo'lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o'tib ketadi. Mazkur bosqichda yirik shaharlar tez o'sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o'sishi ayrim hollarda "soxta" urbanizatsiya tarzida, ya'ni shahar chekkalarida qishloqdan ko'chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko'rinishida kechadi. Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar hozirda urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechmoqda.

2. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichida aholing 50 % dan 75% gacha bo'lgan qismi shaharlarda to'g'ri keladi va "millioner" shaharlarning yuqori sur'atlar bilan o'sishi kuzatiladi. Yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi kuzatiladi va yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanadi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubi-g'arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko'p mamlakatlar uchun xosdir.

3. Yetuk urbanizatsiya bosqichini Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda aholining 75 % dan ortuq qismi shaharlarda to'g'ri keladi. Aholi yirik shaharlarning markazlaridan astasekin shahar atrofiga ko'chib boradi, lekin shaharda ishlash, o'qish, turli faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraveradi hamda suburbanizatsiya vujudga keladi.

Yuqoradagi boshqichlardan ko'rinib turibdiki shaharlar rivojlanishi turli mintaqalarda turlicha kechmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda shaharlar rivojlanishi keskin tus olmoqda. Mamlakatlarning ho'jaligidagi o'sishi bilan birga shaharlarni rivojlanishi hamoxan kechmoqda. Bunga misol qilib Xitoy, Hindiston va arab mamlakatlaridagi jarayonlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek tropik Afrika mamlakatlarida aholi qulay yashah va ishlash maqsadida shaharlarda ko'chib o'tishi natijasida shaharlar rivojlanmoqda.

Ko'rinib turibdiku jahon mintaqasi shaharlarning rivojlanishi turli bosqichlar da turlicha rivojlanib bormoqda. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko'rsatkichi o'rtacha hisobda 70 foizdan oshgan holda, shaharlari rivojlanishi sur'atlari ancha sekinlashib borib urbanizatsiyalashuv kuzatilmayabdi. (1-jadval)

1-jadval

Dunyo va yirik mintaqalarning urbanizatsiya darajasi (2021-yil)

№	Dunyo va yirik mintaqalar	Urbanizatsiya darajasi, % da
1	Dunyo	54.7
2	Rivojlangan davlatlar	78.3
3	Rivojlanayotgan davlatlar	49.1
4	Yevropa	75
5	Osiyo	49
6	Afrika	43
7	Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)	81
8	Lotin Amerikasi	80

9	Avstraliya va Okeaniya	70
10	Markaziy Osiyo	47

Jadval muallif tomonidan BMT ning Aholishunoslik jamg'armasidan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan. [10]

Islandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Venesuela kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo'lgan davlatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Jahon aholisining 60 foizi va dunyodagi shaharliklarning yarmi yashaydigan va asosan rivojlanayotgan davlatlardan iborat Osiyo qit'asida urbanizatsiyaning umumiy darajasi birmuncha pastroq, 50 foiz atrofida bo'lib, o'sishi davom etmoqda. Afrikada esa urbanizatsiya ko'rsatkichi 40 foizdan sal ko'proq. Lekin har ikkala qit'ada ham yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar bor. Jumladan, Osiyoda bu borada Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Fors qo'ltig'i arab mamlakatlari, Tailand, Afrikada esa Liviya, Jazoir, Misr, Marokash, JAR kabi davlatlar ajralib turibdi. Shu bilan birga, Butan, Burundi, Malavi, Uganda, Chad, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi 25 foizga ham yetmaydi. Ammo oxirgi yillarda shahar aholisining umumiy soni va jahon aholisidagi ulushi aynan Osiyo va Afrika davlatlarida kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari, ayniqsa yaxshi yashash uchun ichki migratsiya hisobiga ko'paymoqda. Bunda eng salmoqli hissa shaharlari ancha yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotgan Xitoy va Hindiston davlatlariga tegishli.

Jahonda shaharlarni rivojlanishida hozirgi kunda xalqaro savdo-iqtisodiy va moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga hamda xalqaro turizmning jadal rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo'lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyo-dagi eng yirik port, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg'arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadilar. Shu toifadagi shaharlarga nisbatan global (yoki jahon) shaharlari atamasi qo'llanilmoqda. Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o'ta katta shaharlar kiritiladi. Global shaharlar safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta'sir doirasi esa barcha qit'a va ularning yirik qismlarini qamrab olmoqda. Keyingi yillarda qator janubiy-g'arbiy Osiyo va sharqiy Osiyoning ayrim shaharlari global ahamiyat kasb etmoqda[4].

XULOSA

Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo'lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo'lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy va ayniqsa jinoyatchilik ko'rsatkichini ortishi jihatlar bilan tavsiflanadi. [7-215]

Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o'tkazadigan bosimining kuchayishi, suv ta'minotidagi kamchiliklar, shahar turmush tarzi bilan bog'liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi.

Demak, jahon urbanizatsiyasining zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko'rinishdagi muammoli jihatlar bilan o'ziga xos ravishda shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Tacoli, Cecilia (2015). Урбанизация, миграция из сельской местности в город и городская бедность. Макгронахан, Гордон, Саттертуэйт, Дэвид. Лондон: Международный институт окружающей среды и развития. ISBN 9781784311377. OCLC 942419887.
2. Хайдаров, И. М., & Каримов, Н. Р. (2017). Classification of the scientific heritage of Hakim Tirmidhi. In *European research* (pp. 28-31).
3. "Городская жизнь: компьютеры под открытым небом". Экономист. 27 Октября 2012 года. Проверено 20 марта 2013 года.
4. Nematov, O. (2018). Historical and religious monument of muhammad sharif (Mevlanagrekushoh). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 448-452.
5. "Урбанизация". ЮНФПА – Фонд Организации Объединенных Наций в области народонаселения.
6. Барни Коэн (2015). "Урбанизация, рост городов и новая повестка дня Организации Объединенных Наций в области развития". Том 3, № 2. Cornerstone, Официальный журнал мировой угольной промышленности. стр. 4-7. Архивировано с оригинала 27 июня 2015 года. Проверено 26 июня 2015 года.
7. Gudalov, M. (2022). Changes in water volume and environmental impact in the Aydar-Arnasay lake system. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(1), 1-9.
8. Gries, T.; Grundmann, R. (2018). "Рождаемость и модернизация: роль урбанизации в развивающихся странах". Журнал международного развития. 30 (3): 493-506. doi:10.1002/jid.3104.
9. Yunusova, G. D. (2020). AUXILIARY VERBS IN KOREAN LANGUAGE THAT MEAN COMPLETION, PRESERVATION, REPETITION, AND INTENSIFICATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 4213-4220.

10. Аннез, Патрисия Кларк; Бакли, Роберт М. (2009). "Урбанизация и экономический рост: определение контекста" (PDF). В Спенс, Майкл; Аннез, Патрисия Кларк; Бакли, Роберт М. (ред.). Урбанизация и экономический рост. ISBN 978-0-8213-7573-0.
11. Реба, Мередит; Рейтсма, Фемке; Сето, Карен К. (7 июня 2016). "Распространение 6000 лет глобальной урбанизации с 3700 г. до н.э. по 2000 г. н.э.". Научные данные.